O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ELEKTR ENERGETIKA TIZIMLARINING HOLATLARINI BOSHQARISH VA OPTIMALLASH

fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy ko‘rsatma

Toshkent – 2020

UDK 621.311.16

Pulatov.B.M., Shonazarov A.E., Aytbayev N.A., Normamatov. N.N - «Elektr energetika tizimlarining holatlarini boshqarish va optimallash» fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy ko‘rsatma – Toshkent: ToshDTU, 2020, – 66 b.

Uslubiy ko‘rsatma bakalavriatning 5310200 - «Elektr energetikasi» ta‘lim yo‘nalishida tahsil oluvchi bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, keltirilgan amaliy ishlar majmui mazkur fanning namunaviy dasturiga muvofiq ishlab chiqigan.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy – uslubiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi.

Taqrizchilar:	Xamidov SH.V.-	«Energiya» KDM yetakchi muhandisi., t.f.n. dots.
	Raxmonov I.U.-	ToshDTU “Elektr ta‘minoti” kafedrasi mudiri PhD, dots

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2020

KIRISH

Elektr energetikasining hozirgi taraqqiyoti ularning samarali ishlashini ta‘minlovchi boshqarish usullarini ishlab chiqishi talab etadi.

Xalq xo‘jaligining ko‘pgina boshqa tarmoqlaridagi singari energetikada ham samaradorlik ikkita yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ulardan birinchisi yangidan ishga tushiriluvchi jihozlarni takomillashtirish, energetika tizimi parametrlari va tuzilmasini takomillashtirishga asoslangan. Bunday tadbirlar katta miqdordagi xarajatlarni talab qilib, faqat yangidan ishga tushirilayotgan qurilma va ob‘yektlarning holatlariga ta‘sir etadi.

Ikkinchi yo‘l uzatiluvchi elektr energiyaning sifati va miqdorini ta‘minlagan holda, energetika tizimining holatini optimallash orqali maksimal darajada xalq xo‘jalik samarasini olishdan iborat.

Qisqa muddatli davr uchun ikkinchi yo‘l bo‘yicha hal etiluvchi masalalarning bir qismi bo‘lib: keyingi optimallash uchun zarur bo‘lgan ayrim agregat va stansiyalarning bir qator texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqlash; elektr enegetika tizimining aktiv va reaktiv yuklamalarini elektr stansiyalari (ularning agregatlari) orasidagi optimal taqsimlash va elektr tarmoqning holatini optimallash masalalari hisoblanadi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan optimallash masalasi umuman bir vaqtda kompleks tartibda yechilishi lozim. Shu bilan bir vaqtda kompleks optimallash masalasining o‘lchami (ya‘ni ularda topilishi lozim bo‘lgan nomalumlar soni) juda katta bo‘lganligi sababli ularni yagona algoritm asosida yechish murakkab masala hisoblanadi. Shu sababli bu qiyinchiliklarni yengib o‘tishning asosiy yo‘li masalalarni maqsadga muvofiq tarzda dekompozitsiyalash, ya‘ni alohida masalalarga ajratib yechishdan iboratdir.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada «Elektr energetika tizimlarining xolatlarini boshqarish va optimallash » fanidan amaliyot ishlari bo‘yicha dastlabki tayyorgarlik, ularni bajarish, ular bo‘yicha hisobotlarni rasmiylashtirish yuzasidan ko‘rsatmalar va zaruriy ma‘lumotlar berilgan. Har bir amaliyot ishi bo‘yicha ishning maqsadi, nazariy ma‘lumotlar, ishning dasturi, ishni bajarish tartibi, topshiriq variantlari va sinov savollari keltirilgan

1-amaliy mashg‘ulot. **O‘zR elektr energetika tizimi va dispetcherlik boshqaruvi**

Elektr energetika tizimlari (EET) texnologik jarayonining xarakterli xususiyati bo‘lib elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste‘mol qilish jarayonlarining birligi hamda energetika tizimining barcha elementlarining ish rejimlarini eng yangi axborot texnologiyalaridan va dasturiy ta‘minotlardan foydalanish orqali ta‘minlab beriladigan yaqin o‘zaro aloqasi hisoblanadi.

O‘zbekiston EET dispetcherlik boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimi (DBAT) elektr tarmoqlari bilan qamrab olingan butun hudud bo‘yicha energetik tizim holati va ahvoli to‘g‘risida axborotni to‘plash, o‘zgartirish, uzatish, qayta ishlash va aks ettirish, to‘plangan axborot asosida tizim tomonidan uning barcha iste‘molchilarini talab etilgan sifatdagi elektr va issiqlik energiyasi bilan ishonchli va tejamli ta‘minlash funksiyalarini bajarish (mavjud vositalar hisobiga) maqsadida boshqaruvchi komandalarni uzatish va amalga oshirishni ta‘minlab beruvchi ierarxik ko‘rinishda qurilgan odam-mashina tizimini o‘zida ifoda etadi.

DBAT o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- MO BET "Energiya" BDMdagi, O‘zbekiston EET Milliy dispetcherlik markazi (MDM) da, elektr tarmoqlari korxonalarining (ETK) dispetcherlik punktlaridagi (DP) boshqaruv hisoblash markazlari (BHM);
- Elektr stansiyalarning, energobloklarning, nimstansiyalarning texnologik jarayonlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari (TJ BAT);
- Avtomatik rostlash va boshqarishning markaziy va lokal tizimlari.

EET DBAT ining barcha elementlarini boshqaruv komandalari va operativ axborotni to‘plash va uzatishning yagona birlamchi tarmog‘i birlashtiradi.

DBAT masalalari turga bo‘lib boshqaruvning to‘rtta vaqt darajasini qamrab oladi (hududiy ierarxiyaning har bir pog‘onasi uchun):

1. Rejimlarni uzoq muddatli rejalashtirish (oy, kvartal, yil).

Bu daraja masalalari:

- energiya iste‘moli va yuklamaning xarakterli grafigini prognoz (bashorat) qilish;

- quvvat va elektr energiyasi balanslarini ishlab chiqish (yillik, kvartal, oy);
- energetik resurslardan foydalanish va rejali ta‘mirlashlarni o‘tkazish rejalarini optimallashtirish;
- yilning xarakterli davrlari (kuzgi-qishki maksimum, daryolarda suv ko‘payishi davri va boshqalar) uchun hamda yangi ob‘yektlar kiritilishi va parallel ishlovchi EET lar tarkibini kengayishi bilan (turg‘unlikni, qisqa tutashuv toklarini, releli himoya va avtomatikani sozlash parametrlarini xisoblash) rejimlarni va sxemalarni ishlab chiqish;
- elektr energiyasining sifati va elektr ta‘minotining ishonchliligini oshirish, dispetcherlik boshqaruvi vositalarini va normal va avariya rejimlarini avtomatik boshqarish tizimlarini tatbiq qilish va takomillashtirishning barcha kompleks masalalarini yechish;
- dispetcherlik yo‘riqnomalarini ishlab chiqish;

2. Rejimlarni qisqa muddatli rejalashtirish (sutkaga, xaftaga).

Bu daraja masalalari:

- EET ish sharoitlarini o‘zgarishi va aniqlashtirilishi borasida 1-darajada qarorlarini korrektirovka qilish (to‘g‘rilash) (iste‘mol darajasi, gidroresurslar bilan ta‘minlanganlik, yoqilg‘i strukturasi va h.k.) bu yerda 1-darajaning qator masalalari cheklashlar ko‘rinishida nomoyon bo‘ladi (gidroresurslarni xaftali va sutkali sarflari, ta‘mirga chiqarilgan agregatlarning quvvatlari va h.k.lar);

Asosiy uskunalarni, boshqaruv va avtomatika vositalarini ta‘mirga chiqarishga operativ talabnomalarni ko‘rib chiqish.

3. Joriy rejimlarni operativ boshqarish (kun davomida).

Bu daraja masalalari:

- joriy rejimlarni sutkali reja-grafiklar bo‘yicha operativ olib borish;
- rejim parametrlarini rejadagi qiymatlaridan og‘ishlarida rejimni korrektirovka qilish (keyingi optimallash);
- avariya rejimlarini bartaraf etish va avariyadan keyingi rejimlarda normal elektr ta‘minoti sxemasini tiklash;
- shikastlanish joylarini qidirish, ta‘mirlash va tiklash ishlarini tashkil etish.
-

4. Normal va avariya rejimlarini avtomatik boshqarish.

Bu daraja masalalari:

- rejimni releli himoya va avariyaga qarshi avtomatika qurilmalari, chastota va kuchlanish bo‘yicha avtomatik rostlash qurilmalari va markaziy va maxalliy tizimlar tomonidan o‘tkaziladigan avtomatik boshqaruv.

DBAT ning BXM dagi asosiy tashkil etuvchisi bo‘lib operativ axborot – boshqaruv komplekslari (OABK) hisoblanib, ular yordamida MDM dispetcherlik xodimlari quyidagilarni amalga oshiradi: boshqarilayotgan energetik tizimni joriy holatini nazorat qilish (sxemani, rejimlarni va boshqaruv vositalarini), o‘tgan hodisalarni retrospektiv tahlili, perspektiv rejimlarni baholash. EET ning joriy va perspektiv holati, yuklama grafiklari, dispetcherlik yo‘riqnomalari va direktiv materiallardagi ko‘rsatmalar va tavsiyalarni e‘tiborga olgan holda operativ talabnomalar bo‘yicha ta‘mirlash ishlarini o‘tkazish rejalari loyihasidagi axborotdan foydalanib MDM dispetcherlik xodimlari quyidagilarni ta‘minlaydilar:

- boshqariluvchi ob‘yektlarga ta‘sirlarni ishlab chiqarish (EET rejimini elektr stansiyalarining yuklama grafiklarini rostlashni qo‘shgan xolda aktiv va reaktiv quvvat bo‘yicha rostlash);
- avtomatika va operativ boshqaruv uskunalari va vositalarini ta‘mirga chiqarish va ta‘mirdan so‘ng ishga kiritish;
- yangi boshqaruv uskunalari va vositalarini ishga kiritish;
- nazoratdagi tarmoq sxemasini o‘zgartirish;
- avariyali xolatlarni bartaraf etish va EETning normal ish rejimini tiklash;
- operativ hisobotni olib borish;
- operativ axborotni uzatish.

Boshqaruvchi ta‘sirlar MDM dispetcherlik xodimlari tomonidan operativ bo‘ysinuvdagi ob‘yektlarga ushbu ob‘yektlarning dispetcherlik xodimlari orqali yoki bevosita TJ ABT ga va energetik ob‘yektlarni avtomatik rostlash va boshqarish tizimlariga teleboshqaruv qurilmalari yordamida uzatiladi.

Boshqaruv ta‘sirlari quyidagilarni ta‘minlab beradi:

- elektr tarmog‘ining sxemasini;
- elektr stansiyalari va nimstansiyalarining uskunalarining tarkibini;
- avtomatik va operativ boshqaruv vositalarini algoritmlari va sozlash parametrlarini;

- avtomatika qurilmalarini;
- elektr stansiyalari agregatlarini yuklamasini;
- iste‘molchilarining yuklamasini;
- elektr tarmog‘ining nazorat nuqtalaridagi kuchlanishlarni (sinxron mashinalarning qo‘zg‘atishga ta‘sir ko‘rsatish, reaktiv quvvatni kompensatsiyalovchi qurilmalarni ulash yoki uzish, transformator ansapflarini uzib-ulash vositasida).

O‘zbekiston Respublikasi energetika tizimining dispetcherlik boshqaruvini avtomatlashtirilgan tizimi energetika tizimini boshqarishni barcha asosiy bo‘g‘inlarini operativ-axborot ta‘minotini amalga oshiradi. Energetika tizimini boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste‘mol qilish texnologik jarayonini nazorat qilish imkonini beradi.

Energetika tizimi korxonalaridagi lokal hisoblash tarmoqlari IBM –- SHEHM bazasida ishlaydi. Energetika tizimining bir qator korxonalari modemlar yordamida kommutasiyalangan va aloxida ajratilgan telefon aloqa kanallari bilan kompaniya apparatining DBAT ini operativ axborot kompleksiga (OAK) ulangan va energetika tizimi ish rejimi to‘g‘risidagi teleaxborotni sutka davomida uzatib beradi.

Teleaxborotlarni qabul qilish uchun elektr tarmoqlari korxonalarining dispetcherlik punktlarida shaxsiy EXM larda "Telemexanika" avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ–T) ishga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining milliy dispetcherlik markazi energetika tizimining elektr stansiyalari va tarmoqlarining birgalikdagi ishi ustidan operativ dispetcherlik raxbarlikni amalga oshiradi.

MDM "O‘zbekenergo" DAK ning texnik ishlab chiqarish bo‘linmasi bo‘lib uning maqsadlariga quyidagilar kiradi:
- ist‘emolchilarni elektr ta‘minotini uzluksizligini ta‘mirlash;
- energetika tizimining va uning alohida tugunlarini ishlash ishonchliligini ta‘minlash;
- elektr energiyasining o‘rnatilgan me‘yorlarini qondiradigan sifatini ta‘minlash (elektr tokining chastotasi va kuchlanishi);
-energetik resurslardan oqilona foydalangan holda va berilgan yuklama grafiklarini bajarishda energetik tizimning tejamliligini ta‘minlash.

MDMning asosiy vazifalari bo‘lib xisoblanadi:
- O‘zbekiston energetika tizimining elektr stansiyalari va elektr tarmoqlarining birgalikdagi ishini sutka davomida operativ dispetcherlik boshqaruvini amalga oshirish;

- Yuklama va sistemalararo oqimlar grafiklarini berilgan quvvat rezervlari va turg‘unlik zaxiralarida ta‘minlash;

- Elektr tarmog‘ini aktiv va reaktiv quvvat bo‘yicha optimal rejimini ta‘minlash;

- Energetik tizimda alohida regionlarda va energetik bog‘lamlardagi tizim ahamiyatidagi avariyalarni bartaraf etishni ta‘minlash;

- Yuklamalarni elektr stansiyalari o‘rtasida eng tejamli taqsimlanishini ta‘minlash.

Energetik tizimini boshqarish MDM (1-daraja), MET lari dispetcherlik xizmatlari (2-daraja): Toshkent regional dispetcherlik xizmati (TRDX), Farg‘ona regional dispetcherlik xizmati (FRDX), Samarqand regional dispetcherlik xizmati (SRDX) va MDM ning filiali - Taxiatosh dispetcherlik xizmati (TDX) tomonidan amalga oshiriladi. (1-rasm.)

Surxandaryo viloyatining energetik xo‘jaligini operativ boshqarish Tojikiston energetika tizimi MDMi va O‘zbekiston energetika tizimi MDM iga operativ bo‘ysinuvchi Surxondaryo elektr tarmoqlari dispetcherlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston EET MDM ining **dispetcherlik pultida** mnemonik shit bo‘lib, unda O‘zbekiston energetika tizimining ob‘yektlari (elektr stansiyalari, nimstansiyalari) va ular orasidagi aloqalar sxema ko‘rinishida keltirilgan. Har bir uzgich yorituvchi indikatorga ega. Agar ob‘yekt ishlamayotgan bo‘lsa (ta‘mirlash, avariya va h.k.lar sababli) va uzgich o‘chirilgan bo‘lsa indikator qizil nur bilan yoritadi, agar ish holatida bo‘lsa indikator rangi yashil bo‘ladi. Ushbu ob‘yektlarni bog‘lovchi yuqori kuchlanish liniyalari shitda quyidagi ranglar bilan belgilangan: 500 kV - qora, 220 kV – ko‘k va 110 kV - qizil.



1-rasm. O‘zbekiston EET dispetcherlik boshqaruvining strukturasi

Qabul qilingan qisqartirishlar: ODX – operativ dispetcherlik xizmati, Tosh ET - Toshkent viloyati elektr tarmoqlari, Toshshahar ET - Toshkent shahar elektr tarmoqlari, Jiz ET – Jizzax viloyati elektr tarmoqlari, SD ET – Sirdaryo viloyati elektr tarmoqlari, Farg‘ET – Farg‘ona viloyati elektr tarmoqlari, And ET – Andijon viloyati elektr tarmoqlari, Nam ET – Namangan viloyati elektr tarmoqlari, Surx ET - Surxandaryo viloyati elektr tarmoqlari, Sam ET – Samarqand viloyati elektr tarmoqlari, Bux ET – Buxoro viloyati elektr tarmoqlari, Nav ET – Navoiy viloyati elektr tarmoqlari, Kash ET – Kashkadaryo viloyati elektr tarmoqlari, Xor ET – Xorazim viloyati elektr tarmoqlari, QQ ET – Qoraqalpog‘iston Respublikasi elektr tarmoqlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Dispetcherlik boshqaruvining asosiy tamoyillari.
2. O‘zbekiston energetika tizimining DBATi. Maqsadi, vazifalari, strukturasi, texnik, axborot, dasturiy va boshqa ta‘minoti.
3. EET rejimlarini boshqaruv darajalari va ularning vazifalari.
4. EET joriy rejimlarini operativ boshqaruvini tashkil etish.
5. Energetika tizimi rejimlarini avtomatik boshqaruv vositalari va ularning funksiyalari.
6. SHikastlanish joyini aniqlash dasturining ishlash tamoyillari.

2-amaliy mashg‘ulot.

O‘zbekiston energetika tizimini generatsiyalovchi (ishlab chiqaruvchi) quvvatlar tuzilishi. Asosiy elektr stansiyalari va liniyalari

O‘zbekiston energetika tizimi o‘z istemolchilarni elektr energiyasi bilan to‘liq taminlab beradi va Qozog‘iston elektr tarmoqlari orqali Rossiya yagona energetik tizimi (YAET) bilan parallel ishlovchi Markaziy Osiyo (MO) Birlashgan energetika tizimi (BET) ga kiradi. O‘zbekiston energetika tizimi 500 va 220 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyalari orqali yondosh davlatlar – Qozog‘iston BET, Qirg‘iziston EET, Tojikiston EET bilan bog‘langan.

O‘zbekiston energetika tizimining 42 elektr stansiyasining o‘rnatilgan quvvati 13000 MVt bo‘lib yiliga 60 mlrd. kVt•s elektr energiyasi ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Issiqlik elektr stansiyalarining o‘rnatilgan quvvati – 11300 MVt, gidroelektr stansiyalarniki – 1700 MVt. Bizning energetika tizimining asosini quyidagi (86%) yirik issiqlik elektr stansiyalari tashkil etadi – Sirdaryo IES (3000 MVt), Yangi–Angren IES (2100 MVt), Toshkent IES (1860 MVt), Navoiy IES (1250 MVt). Bloklari 800 MVt dan bo‘lgan quvvati 3200 MVt li Talimarjon IES qurilmoqda (birinchi blok 2004 yilda ishga tushirildi).

Respublika gidroenergetikasi asosan gidroelektr stansiyalar kaskadlaridan tashkil topgan. Ulardan eng yirigi uchta elektr stansiyasidan tashkil topgan O‘rta chirchiq GESlari kaskadi: 620 MVt quvvatli chorbog‘ GESi, 165 MVtli Xojikent GESi va 120 MVtli G‘azalkent GESlaridir.

O‘zbekiston energetika tizimini elektr tarmoqlarining uzunligi 110 kV va undan yuqori kuchlanishlarda – 21000 km, jumladan 500 kVda - 1657 km, 220 kVda – 5423 kmga teng.



2.1–rasm. O‘zbekiston energetika tizimi tarkibi (tuzilishi):
SZCH - Shimoliy-G‘arbiy (Taxiatosh) qismi; SBCH - Janubiy- G‘arbiy (Samarqand-Buxoro) qismi; TCH - Markaziy (Toshkent) qismi; FDCH – Farg‘ona qismi; Surxon - Surxondaryo viloyati elektr tarmoqlari

O‘zbekiston energetika tizimi tarkibiy jihatdan quyidagi qismlarga bo‘linadi (2.1–rasm):

- Shimoliy-G‘arbiy (Taxiatosh) qismi;

- Janubiy-G‘arbiy (Samarqand-Buxoro) qismi;
- Markaziy (Toshkent) qismi;
- Farg‘ona qismi;
- Surxondaryo viloyati elektr tarmoqlari.

Energetika tizimining barcha qismlari o‘zaro 220 va 500 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyalari bilan bog‘langan.

O‘zbekistonning asosiy generatsiyalovchi (ishlab chiqaruvchi) quvvatlari:

Yirik GESlar

№	Nomlanishi	O‘rnatilgan quvvati, MVt	Turbi-nalar soni	Ishga tushirilgan yillari	Daryoning nomi
1	Chorbog‘ GES	620,5	4	1970-1972	Chirchiq
2	Xojikent GES	165	3	1976	Chirchiq
3	G‘azalkent GES	120	3	1980-1981	Chirchiq
4	Farhod GES	126	4	1948-1949	Sirdaryo
5	Tuyamuyun GES	150	6	1983-1984	Amu-daryo
6	Andijon GES	140	4	1983-1984	Qoradaryo

Issiqlik elektr markazlari (IEM)

№	Nomlanishi	O‘rnatilgan quvvati, MVt	Ishga tushirilgan yillari	Joylanishi
1	Farg‘ona IES	330	1956-1979	Kirg‘ali sh.
2	Mubarek IES	60	1985-1988	Mubarek sh.
3	Toshkent IES	30	1939-1954	Toshkent sh.

Issiqlik elektr stansiyalari (IES)

№	Nomlanishi	O‘rna-tilgan quvvat, MVt	Turbo-agregatlar soni	Ishga tushirilgan yillari	Joylanishi
1	Sirdaryo IES	3000	10	1972-1981	SHirin sh.
2	Yangi–Angren IES	2100	7	1985-1995	Nurobod sh.
3	Toshkent IES	1860	12	1963-1971	Toshkent sh.
4	Navoiy IES	1250	11	1963-1981	Navoiy sh.
5	Angren IES	484	8	1967-1963	Angren sh.
6	Taxiatosh IES	730	5	1961-1990	Taxiatosh sh.
7	Talimarjon IES	800	1	1984-2004	Nuriston sh.
8	To‘raqo‘rgo‘n IES	900	3	2019	Namangan sh

Jadvallarda O‘zbekiston energetika tizimida ishlaydigan asosiy elektr stansiyalar keltirilgan. Issiqlik elektr stansiyalari energetika tizimining yuklama grafigini bazisida ishlaydi, ya‘ni doimiy quvvat beradi.

Yoz mavsumida boshqa energetik tizimlardan quvvat oqimlari bo‘lgan paytda issiqlik elektr stansiyalari yuksizlantiriladi va bu paytda ushbu stansiyalarda uskunalarni ta‘mirlash bajariladi. Yil mavsumiga bog‘liq ravishda elektr stansiyalarining ishi turlicha bo‘ladi. Masalan, yozda gidroelektr stansiyalar ishlaydi, bunda issiqlik stansiyalarini yuksizlanishi yuz beradi, qishda esa aksincha, issiqlik elektr stansiyalari to‘la rejimda ishlaydi. Bunda yozgi mavsumda, normal suv oqimi ta‘minlangan holda O‘rta – Chirchiq GES lari kaskadi yuklama grafigining bazisida ishlashi mumkin. Har bir issiqlik stansiyasida doimiy ishda bo‘lishi lozim bo‘lgan uskunalarning o‘z minimal tarkibi bor: Toshkent IES da bu 6 ta blok, Yangi-Angren IES da – 3 ta blok, Sirdaryo IES da – 4 ta blok va h.k.

Energetika tizimida asosiy iste‘molchilar bo‘lib yirik sanoat korxonalari: Navoiy KMK, Olmaliq KMK, Buxoro NQZ, Farg‘ona NQZ, Sho‘rton GKK, nasos stansiyalari va boshqa iste‘molchilar hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘zbekiston energetika tizimining strukturasi, asosiy generasiyalovchi quvvatlar va bog‘lovchi EUL lar qanday?.

2.O‘zbekiston energetika tizimining mnemonik shitida energetika tizimining strukturasi va asosiy obyektlari?

3.O‘zbekiston energotizimining suv-energetika sektori faoliyati qanday?

3-amaliy mashg‘ulot.

IES energoblokining TJ ABT

Texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruvining tizimi (TJ ABT) deb uskunalar holati nazorati, boshqaruvning ayrim funksiyalari, ayrim parametrlarini sozlash, kommutatsion operatsiyalarni boshqarish va EHM da bajariladigan ayrim operativ hujjatlarni kiritilishidek mashina - inson tizimiga aytiladi. Operativ xulosalarning amalga oshishi va ularni qabul qilish masalalari va ularni boshqaruvning boshqa bosqichlari bilan bog‘liqligini esa inson hal qiladi.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ABT si) ni vazifalari. Elektr stansiyalarida texnologik jarayonlarni ABT sining quyidagi yettita asosiy vazifalarni ko‘rsatish mumkin:

- texnolgik jarayonning borishini nazorat qilish;
- texnologik va elektr parametrlarni stabillash;
- dasturiy boshqarish (masalan, jihozni ishga tushirish va to‘xtatish);
- ish holatini optimallash;
- avariyalardan himoyalash;
- boshqarishning yuqori pag‘onasi bilan operativ a‘loqada bo‘lish;
- hujjatlarni yurgizish (operativ bosmadan chiqarish).-

Texnologik jarayonlarning ABT sini joriy etish bosqichlari. Texnologik jarayonlarni ABT sini joriy etishni to‘rtta bosqichga ajratish mumkin:

1.Maslahatchi – mashina. EHM boshqarish konturiga kiritilmagan. Barcha boshqarish amallarini operator-inson bajaradi.

2.EHM – mahalliy avtomatik boshqarish qurilmasi ustiga sozlab qo‘yilgan. Boshqarish mahalliy avtomatik boshqarishning qo‘yilmalarini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi.

3.EHM – mahalliy boshqarishning maxsus yaratilgan raqamli qurilmalari ustiga sozlab qo‘yilgan (masalan, mahalliy rostlagichlar vazifasini bajaruvchi mini EHM larga sozlab qo‘yilgan).

4.Mahalliy boshqarish qurilmalari va markaziy prosessorlani birga jamlovchi ya‘gona kibernetik tizim.

Hozirgi davrda elektr energetikasi sohasida texnologik jarayonlarning ABT sini joriy etishni to‘rtinchi bosqichi davom etmoqda deb baholash mumkin.

Bloklar va elektr stansiyalarining texnologik jarayonlarini ABT si. Bloklar va elektr stansiyalarining texnologik jarayonlarini ABT lari bir-biridan farq qiladi. Blok texnologik jarayoni ABT sining asosi bo‘lib jarayoninng texnologik parametrlari va jihozning texnologik holati haqida axborotni yig‘ish, birlamchi qayta ishlash va aks ettirish vazifasini, ya‘ni markazlashgan nazorat vazifasini bajaruvchi axborot tizimi yoki axborot majmuasi hisoblanadi. Axborot majmuasi, shuningdek, texnologik jarayon parametrlarining holatlarini signallash va qayd etish vazifasini ham bajaradi.

Taraqqiy etgan blok texnologik jarayonining ABT sida texnologik jarayon borishining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblash, boshqarishning yuqori pag‘onasi uchun axborot tayyorlash ishlari ham amalga oshiriladi. Boshqarish tizimining muhim jihati bo‘lib EHM ning mahalliy avtomatik boshqarish qurilmalari bilan o‘zaro ta‘sirni tashkil etish hisoblanadi. Odatda, blok ABT sining axborot majmuasi IES ning butun stansiya ABT si uchun asosiy axborot manbasi hisoblanishi mumkin.

Texnologik jarayon ABT sining texnik vositalari majmuasi har xil ko‘rinishda bo‘lib, ular ixtisoslashtirilgan yoki universal EHM lardan foydalanish asosida ishlab chiqilishi mumkin. Birinchi energobloklarda IV-500 sinfidagi ixtisoslashtirilgan EHM lar o‘rnatilgan (3.1- rasm). Ular juda cheklangan hisoblash imkoniyatlariga va xotiraga ega bo‘lgan. Keyinroq ikkinchi va uchinchi avlod EHM larining tipik elemetlaridan yig‘ilgan «Kompleks-ASVT» deb yuritiluvchi energobloklar uchun ixtisoslashtirilgan vositalar o‘rnatilgan.

Axborot majmuasining yaratilishi IES ning holatini rasional boshqarish uchun yetarli bo‘lmagan. Shu sababli blokning axborot tizimi ustida ixtisoslashtirilgan hisoblash majmuasi (HM) ko‘rinishidagi sozlangan tizim paydo bo‘lib, u IES ABT sining turli masalalarini yechishda foydalanilgan. Ko‘p holatlarda hisoblash majmuasi HM ning asosida M-6000 yoki M-7000 sinfidagi EHM lardan foydalanilgan.

M-6000 sinfidagi EHM lar energobloklarga xizmat ko‘rsatishdan tashqari IES ABT sining umumstansiya masalalarini ham hal qilgan. U qo‘llanilganda IESning ABT si va integrallashgan boshqaruv tizimini tabiiy solishtirish amalga oshirildi.



3.1- rasm. Issiqlik elektr stansiyalarining texnologik jarayoni texnik vositalari majmuasining variantlari
a- axborot tizimi IV-500; b, v- ixtisoslashtirilgan EHMlar bazasidagi axborot-hisoblash majmuasi; g- integrallashgan bir pag‘onali tizim; d- ikki pag‘onali tizim

Hozirgi davrda eng zamonaviy texnologik jarayon ABT sining asosini bir nechta pag‘onalarga bo‘lish mumkin bo‘lgan dasturiy-texnik majmua tashkil etadi.

Yuqori pag‘onaga avtomatlashtirilgan ish o‘rinlari; axborotni saqlash va tasvirlash vositalari; barcha mikroprotsessorli qurilmalarning sinxron ishlashini ta‘minlovchi vositalar kiradi.

Quyi pag‘onaga bevosita boshqariluvchi obyekt – blok bilan a‘loqada bo‘lgan qurilmalar kiradi. Ular yordamida axborotlarni yig‘ish va tizimning faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash va texnologik jarayon ABT sining barcha funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan boshqarish komandalarini berish amalga oshiriladi. Bunday maqsadlarda o‘zida

mikroprotsessorli himoya va boshqarish vositalarini aks ettiruvchi ixtisoslashgan yoki ko‘p funksiyali intellektual elektron qurilmalar jamlanmasi foydalaniladi.

O‘rta pog‘onaga raqamli tarmoqni tashkil etish uchun zaruriy jihozlar kiradi. Boshqa klassifikatsiyalarda tarmoq jihozlari alohida ajratilmasdan dasturiy-texnik majmua yuqori pog‘onasini bir qismi sifatida qaraladi.

TJ ABT tarkibi. Energetikada ABT ning energetik obyektlari boshqaruvining iyerarxik tarkib bilan bog‘liqligi bir qancha bosqichlarga ega. Yuqori bosqichda o‘z tarkibiga operativ dispetcherlik va xo‘jalik ishlab chiqarish boshqaruv funksiyalarini o‘z ichiga oladigan tarmoqli avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kiradi. ABT tarkibiga davlatning yagona energotizimi - avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi kiradi. ABT ning energetik ishlab chiqarish birlashmasi (EICHB) shu birlashmaga kiradigan ishlab chiqarish birliklariga ega energotizimlar bilan bog‘langan. U o‘z ichiga ayrim obyektlarning TJ ABT ni oladigan - energobloklar, nimstansiyalar, elektr stansiya va tarmoqning ABT larini oladi.

3.1 - rasmda ikkita kontur boshqaruvli IES ning ABT tarkibiy sxemasi ko‘rsatilgan:

energobloklarning texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan holda boshqarish;

avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish xo‘jalik boshqaruvini (ICHXABT) o‘z ichiga oluvchi, ta‘mirlash va ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati boshqaruvi nimtizimi; moddiy texnik ta‘minot boshqaruvi; texnik-iqtisodiy rejalashtirish; mehnat unimdorligi tahlili va hisob-kitobi, ish haqi va kadrlar, buxgalterlik hisob kitobi.



3.2 – rasm. IES TJ ABT tarkibiy sxemasi

Energoblokning TJ ABT ishda bajariladigan funksiyalariga bog‘liq holda ikkita asosiy qismini ajratish mumkin - informatsion va boshqaruv (3.2 - rasm).

Axborot qism o‘z ichiga o‘lchash va signalizatsiya nimtizimlarini oladi. Dastlabki ma‘lumot energoblok uskunasida o‘rnatilgan analog va disket datchiklaridan tushadi. Nimtizim alohida agregatlar va umumiy blok bo‘yicha texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili va hisob kitobini amalga oshiradi. Signalizatsiya va o‘lchov nimtizimlaridan olingan ma‘lumot kerakli qayta ishlovni olgandan keyin uning uchun avtomatlashgan ish joyi tashkil qilingan bosh boshqaruv shiti (BBSH) operatoriga kelib tushadi. Ma‘lumotlarni ko‘rsatish uskunasida ma‘lumot operatorga qulay shaklda ko‘rsatadi.



3.3 – rasm. Energoblokning texnologik jarayonining ABT ni strukturaviy sxemasi.

TJ ABT ning boshqaruv qismiga himoya va blokirovkaning avtomatik sozlanadigan avtomatik va masofadan boshqarish nimtizimlari kiradi. Barcha yuqoridagi nimtizimlar amalga oshiruvchi organlarga diskret ta‘sirni amalga oshiradi. Bular birlamchi sozlagichlar, ishchi mashinalar, elektr yuritmali kommutatsion apparatlardir.

Individual yoki guruhli kalitlar yordamida operator blokning ayrim agregatlarini masofadan boshqarishni amalga oshirish mumkin, boshqaruv qismining boshqa nimtizimlari esa berilgan mantiqiy programmalarga muvofiq blok uskunalariga avtomatik ta‘sir ko‘rsatadi.



3.4 – rasm. Energoblokning TJ ABT ning struktura varianti.

a – markazlashgan kuzatuv va markazlashgan boshqaruv;

b – markazlashgan kuzatuv va qisman markazlashgan boshqaruv;

d – to‘la markazlashgan kuzatuv va boshqaruv.

BO – bajaruvchi organ; D – datchik; H,B – himoya blokirovka; AB – avtomatik boshqaruv; AR – avtomatik rostlash; EHM – elektron hisoblash mashina; AKQ – axborotni ko‘rish qurilmasi; MB – masofali boshqaruv, MR-masofali rostlash, O‘A-o‘lchash asbobi, Op-operator

a, b rasmda ko‘rsatilgan sxema TJ ABT ning informatsion – boshqaruv majmuasi tomonidan bajariladigan funksiya tarkibini tasvirlaydi. Bu funksiyalar bajarilishining markazlashuvi va qo‘llanilish darajasi shu bilan birga informatsion hisoblash maqsadida, ma‘lumotning markazlashgan va qayta ishlash hamda etkazilib berilishi uchun hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Ma‘lumotlar qayta ishlash natijalari va elektron hisoblash mashinalari (EHM) hisoblash ishlari operator tomonidan e‘lon qilinadi va unga energoblok boshqaruvi bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Elektr stansiyalar boshqaruv tizimlarida hisoblash texnikasining qo‘llanilishi aynan shu variantdan boshlangan.

2-variantda hisoblash texnikasi vositalarini nafaqat elektron hisoblash masalalarida, balki markazlashgan boshqaruv maqsadlarini ham qo‘llashni nazarda tutadi. TJ ABT tarkibida EHM bilan yagona majmua tashkil qiladigan, boshqaradigan hisoblash mashinasi (BHM) hosil bo‘ladi. Boshqaruvchi mashinada lokal avtomatik sozlagich masalasi o‘zgartiriladi, mantiqiy avtomatik ishini koordinatlashtiradi va boshqaruv operatsiyalari amalga oshishini nazorat qiladi va h.k.

Boshqaruv operatsiyasining birinchi qismini avvalgidek odam bajaradi. Hozirgi paytda bu tuzilish elektr stansiya TJ ABT sida ko‘proq qo‘llaniladi. Butunlay markazlashgan TJ ABT da energoblokning operativ boshqarishning barcha funksiyalarini boshqaruvchi hisoblash, kompleks bajariladi, shuningdek, bu yerda ko‘proq hisoblash texnikasi imkoniyatlari qo‘llaniladi. Boshqaruvchi mashina hisoblash texnikasi barcha kafolat shartlari yuqori darajada bo‘lganda energoblok boshqaruvi bo‘yicha hamma moslamalarni yechishi mumkin. Operatorda boshqaruvning ayrim operatsiyalarini bajarish, BHM va EHM ishlariga aralashuvi imkoniyati saqlanadi va TJ ABT ishlari ham odam va mashina dialogi holatida olib boriladi.

TJ ABT ning asosi bo‘lib yagona texnologik funksiyalar bilan bog‘langan ishchi mashinalarni tarkibiga oladigan funksional guruhlar hisoblanadi. Funksional guruhlar tarkibiga ishchi mashinalar o‘z yuritmasi bilan o‘z ichiga amalga oshiruvchi uskunalarni oladigan 1-darajali boshqaruv bloklari, bevosita yuritma kommutatsiyalovchi zanjirlar, operativ buyruqlarni operatordan, avtomatik sozlagichlardan, texnologik himoya va 2 bosqichli boshqaruv tizimining mantiqiy qismidan oladi. U berilgan dastur bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishini ta‘minlaydi.

4-amaliy mashg‘ulot
IES va GESning TJ ABT

(Elektr stansiya EET) ning asosiy ishlab chiqarish birligi sifatida, insoning bevosita ishtiroki bilan ishlab chiqarishning e‘tiborli jarayonlari va elektr energiyasini yetkazishga bog‘liq holda avtomatik boshqarilishi

kerak. Ammo, hozirgi vaqtda elektr energetika tizimlarini ishlatishda avtomatlashgan boshqaruv tizimlari qo‘llaniladi.

EET ish holatining avtomatlashgan boshqaruvi EET ning ABT, BET ABT lari bilan amalga oshiriladi. Ularning texnik amalga oshirilishi raqamli hisoblash texnikasining paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq. ABT ning vazifasi bo‘lib elektr stansiyalari va EET ishining ishonchliligi va texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlarining optimalligini ta‘minlash hisoblanadi.

EI da tashkil qilingan elektrlik majmualarning avtomatlashtirish uchun integratsiyalashgan ikki bosqichli iyerarxik va ajratilgan mikroprotsessorli vositalar asosida ishlaydigan issiqlik va atom elektrostansiyalarining ABT va TJ ABT ishlab chiqilgan. Bunda yuqori bosqich – umumiy stansion qism, pastki bosqich – agregat (blok) qismi hisoblanadi.

GES ning mikroprotsessorli ABT

GES lar BET da ishonchli va optimal ish holatini tashkil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular BET yuklama grafigining to‘satdan o‘zgaradigan, o‘zgaruvchan qismini himoya qiladi. Shu bilan IES va AES ning kuchli elektr bloklarning bir tekis ishlashini ta‘minlaydi. O‘nlab sekundlar ichida ishga kiritiladigan quvvatning operativ rezervi o‘z e‘tiborini aynan GES ga qaratadi. GES ning manevrliligi elektr stansiyalarining parallel ish turg‘unligini ta‘minlash va EET da normal ish holatini tiklash maqsadida shikastlanish holatida elektr energiyaning (quvvat) balansini tezkor tiklash uchun keng qo‘llaniladi.

GES ning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT si) ni masalalari. GES ning ABT sini masalalari shartli tarzda to‘rtga bo‘linadi: «Suv» - suv resurslaridan rasional foydalanish masalasi; «Energiya» - agregatlarni rasional boshqarish masalasi; «Axborot» - axborot-so‘rov xarakteridagi masalalar guruhi; «Iqtisodiyot» - xo‘jalik faoliyatini hisoblash va texnik-iqtisodiy rejalashtirish masalalari. So‘nggi vaqtlarda elektr stansiyalari xo‘jaligining mustaqilligini cheklash natijasida to‘rtinchi guruh masalalarining bir qismi energetika tizimi (yoki birlashmasi) pag‘onasiga o‘tkazilgan.

Masalalarning asosiy tiplari bilan tanishamiz.

Axborot.

1. Normal va avariy ish sharoitlarida asosiy va yordamchi jihozlarning holatlari va holatlari haqidagi axborotlarni yig‘ish va qayd etish.

2. Axborotni tasvirlash.

1. Axborotni statistik qayta ishlash.

2. Elektr energiyani ishlab chiqarish va o‘z ehtiyojga sarflanuvchi elektr energiya hisobini tashkil etish.

3. Hujjatlarni shakllantirish va bosmadan chiqarish.

4. GES ning ishi haqida so‘rovnoma fondini yaratish.

5. Agregatlar va stansiyaning energetik xarakteristikalari, yuqori va quyi beflarning xarakteristikalari, suv yetkazuvchi inshootlarda napor isrofining xarakteristikalarini adaptiv aniqlashtirish.

6. Ishonchlilik bo‘yicha stansiya cheklashlarini adaptiv aniqlashtirish.

Suv.

1. Yagona GES suv omborining uzoq muddatli holatlarini optimallash.

2. Berilgan sarflar grafigi bo‘yicha GES ning quvvatlarini hisoblash.

3. GESning ma‘lum yuklama grafiklari va maishiy sarflarda suv omborining sathini hisoblash.

4. Suv bilan ta‘minlanganlik darajasi bo‘yicha xarakterli sharoitlar uchun suv omborining nazorat dispetcherlik grafiklarini qurish.

5. Suvni qo‘yib yuborish sxemasini hisoblash.

6. Uzoq muddatli rostlashda suv resurslaridan kompleks foydalanishni optimallash.

7. Dastlabki axborotni prognozlash natijalari bo‘yicha suv ombori holatini korreksiyalash.

8. Suv omborining sutkalik holatini optimallash.

9. Dastlabki axborotni prognozlash natijalari bo‘yicha suv sarfini sutkali va haftalik rostlashda sarf holatlari va beflar sathi parametrlarini korreksiyalash.

10. Sutkalik va haftalik rostlashda barqarorlashmagan holatni hisoblash.

11. Hisobiy gidrograflarni modellashtirish.

12. Suv balansini hisoblash.

13. Suv resurslaridan samarali foydalanish darajasini tahlili.

Energiya.

1. Rejalashtirish davriga agregatlarning tarkibi va aktiv quvvatlarini aniqlash.

2. Rejalashtirish davriga agregatlarning tarkibi va reaktiv quvvatlarini aniqlash.

3. Rejalashtirish davriga aktiv va reaktiv quvvat rezervlarini agregatlar va stansiyaning qismlari orasida taqsimlash.

4. Rejalashtirish davriga yordamchi mexanizmlardan foydalanish rejasini tuzish.

5. Avariyadan oldingi, avariya va avariyadan keyingi vaziyatlarda stansiyani rasional boshqarishning dasturlari majmuasini tuzish.

6. Releli himoya va avtomatika vositalarining qo‘yilmalarini hisoblash.

7. Stansiyaning kommutatsiya sxemasini tanlash.

8. Ishlab chiqarish jarayonidagi normal holatlarda agregatlarning rejalashtirilgan tarkibini korreksiyalash.

9. Normal holatlarda agregatlar va stansiyaning aktiv va reaktiv quvvatlarini joriy rostlash.

10. Ishlab chiqarish jarayonida stansiyaning rezerv quvvatlarining miqdori va joylashuvini korreksiyalash.

11. Chastotani rostlash.

12. Kuchlanishni rostlash.

13. Agregatlar, stansiya va energetika tizimining avariyadan keyingi holatlarini tahlil qilish.

14. Releyli himoya, avtomatika va signallash qurilmalarini dasturiy rezervlash.

15. O‘lchash datchiklarini sozligini nazorat qilish.

16. Stansiyaning ekvivalent energetik xarakteristikasini qurish.

17. Stansiyaning ichki holatlari samaradorligini tahlil qilish.

GES da axborot man‘balari oltita guruhga bo‘linadi. Bular suv ombori (yuqori bef), gidrotexnik inshootlar, mashina zali, kuchaytiruvchi podstansiya, quyi bef va tashqi (GES ga nisbatan) man‘balardir. Axborotlarning bir qismi manbalardan ishlab chiqarish joylaridan uzluksiz kelib tursa, boshqa bir qism axborotlar esa, doimiy xarakterda bo‘lib, axborot tizimiga kiritiladi yoki nisbatan kam hollarda aniqlashtiriladi.

Hozirgi vaqtda GES ning mikroprotsessorli integrallashgan ABT tuzilgan. Ko‘rsatilishicha, ABT ikki bosqichli hisoblanadi. Pastki agregat bosqichi (AB) o‘z ichiga quyidagi uskunalarni oladi:

- Gidrogenerator GG, transformator T va uni ishga tushirish sxemasi ahvoli haqidagi ma‘lumot to‘plami va birlamchi qayta ishlash;
- Gidrogeneratorlar GA va kommutatsion uskunalar nazorati va diagnostikasi;
- Gidroturbina - generator – transformator bloklarini kompleksli avtomatik boshqaruv;
- Gidroagregatlar va ochiq taqsimlovchi uskunalarda ya‘ni OTQ1, OTQ2 larda AHR shikastlanish vaziyatlarini ro‘yxatga olish.

Ko‘rsatilgandan birinchisi ya‘ni axborot vositalar guruhi texnologik uskunalarning texnik ko‘rsatkichlari haqidagi ma‘lumotlarni etkazadi.

QAU ning agregat bosqichining asosiy boshqaruv qismini gidroagregatning mikroprotsessorli avtomatikasi tashkil qiladi: mikroprotsessorli AS, ARUM va ARV, AYQ uskunalari kuchlanishining o‘zgarish jarayonlarining ossillogrammalari va shikastlanish vaziyatlaridagi toklarni ko‘rsatadi.



4.1 - rasm. Mikroprotsessorli GES ning TJ ABT funksional strukturasi

UB -Umumiy stansiya bo‘limi; AHR - shikastlanish holatlari registratori; AND - agregat nazorati va diagnostikasi; AYQ - axborotlar yig‘ish qurilmasi; PUN - podstansiya uskunalari nazorati; ABK - bloklarni avtomatik boshqarish kompleksi; MK-ma‘lumotlar konsentratori; MA - ma‘lumotlarni akslantirish; EKU - elektr energiya kompleks hisobi; AH.AD - avtomatizatsiya va himoya, ma‘muriyat; MZ - mashina zali; RIB - rejali ishlab chiqarish bo‘limi; AQMA - shikastlanishga qarshi markazlashgan avtomatika; Ish.T-ishga tushirish; UAYU - umumstansiyaviy axborotlarni yig‘ish va uzatish; AQA-shikastlanishga qarshi avtomatika; STU-signalni tezkor uzatish; AYQ - axborotni yig‘uvchi qurilma; UCHAR - umumstansiyaviy chastotani va aktiv quvvatni rostlash; URQKR-umumstansiyaviy reaktiv quvvat va kuchlanishni rostlash.

ABT ning yuqori umumstansion bosqichi quyidagi nimtizimlardan tashkil topgan:

- Normal holatlar, shikastlanish holatlarini ro‘yxatga olish va tahlili haqidagi ma‘lumotlarni elektrostansiya personaliga tasvirlash va ko‘rsatish;
- Elektrostansiyaning normal ish holatining avtomatik boshqaruvi;
- PA ning shikastlanishga qarshi avtomatikasi;

▪ SVU ning yuqori bosqichi va KUE elektrenergiya kompleksi hisoboti bilan axborot aloqa.

OP ning nimtizimi asosiy shit boshqaruvida elektr mashina zali, avtomatika xizmati va himoyasi xonalarida; ma‘muriyat, rejani ishlab chiqish bo‘limida o‘rnatilgan lokal hisoblash tarmog‘i bazasida qo‘riladi. Uning asosiy funksiyalari qurilma hisoblanadi, ya‘ni:

energiya uskunalarida GES ning elektr sxemasi ahvoli haqidagi ma‘lumotning ko‘rsatilishi, texnologik jarayonlarning holati parametrlarining o‘zgarishi va uning ishdan chiqishini zamonaviy aniqlash;

avtomatik boshqaruv uskunalarining normal, shikastlanish oldi va shikastlanish holatlaridagi harakatni ro‘yxatga olish;

texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, ishlab chiqarish va elektr energiya xarajati va statistik ma‘lumotlarning yig‘inining tijoriy hisoboti.

Umumstansion avtomatik boshqaruv nimtizimi 3 ta asosiy qismlardan tashkil topgan:

- ishga tushirish bilan avtomatik boshqaruv va gidrogeneratorlar parallel ishga tushishi (IT) bilan amalga oshiruvchi – IT nimtizimi;
- elektrostansiyada chastota va gidrogeneratorlar orasida aktiv quvvatning optimal taqsimlanishini avtomatik rostlash – chastota va quvvatni rostlovchi umumstansiya nimtizimi (CHQRUN);
- elektrostansiyada kuchlanish va reaktiv quvvatni avtomatik rostlash – kuchlanish va reaktiv quvvatni rostlovchi umumstansiya nimtizimi (KRRUN)

KRRUN mikroprotsessor nimtizimi qo‘yidagilarni ta‘minlaydi:

- elektrostansiya reaktiv kuchlanishini rejalashtirish;
- gidrogeneratorlarning rostlanuvchi tavsiflari farqini va reaktiv yuklama bo‘yicha cheklashlarni hisobga olish;
- har xil kuchlanishli shinalar orasidagi avtotransformatorlardagi reaktiv quvvatlar oqimini tahlil qilish;
- agregatlar ustida boshqariluvchi ta‘sirlarni nazorat qilish va tegishli ma‘lumotlarni uzatish.

Mikroprotsessorli ABT EET dispetcherlik punkti va markaziy dispetcherlik boshqaruv o‘rtasida axborot almashinuvini ta‘minlaydi.

5-amaliy mashg‘ulot

Energobloklarning energetik tavsiflarini qurilishi

Bizga sarf qiymatlari quyidagicha bo‘lgan 3 ta energoblokning natijalari berilgan bo‘lsin:

300 MVt li energoblokning sarf tavsiflari:

Blok № 2		**Blok № 3**	
P, MVt	**B, t.sh.yo./s**	**P, MVt**	**B, t.sh.yo./s**
100	43	90	40
210	99	180	83
280	143	270	134

200 MVt li energoblokning sarf tavsiflari

Blok № 4	
P, MVt	**B, t.sh.yo./s**
100	42
150	68
200	100

IES energobloklarining sarf tavsiflarini approksimatsiyasi uchun Lagranjning interpolyasion formulasidan foydalanamiz. Bu formula yordamida sarf tavsiflarini 2-darajali polinom ko‘rinishida va yetarli aniqlikda olish imkonini beradi:

$$B(P)=\frac{(P-P_2)(P-P_3)}{(P_1-P_2)(P_1-P_3)}\cdot B_1+\frac{(P-P_1)(P-P_3)}{(P_2-P_1)(P_2-P_3)}\cdot B_2+\frac{(P-P_1)(P-P_2)}{(P_3-P_1)(P_3-P_2)}\cdot B_3$$

Lagranjning interpolyatsion polinom formulasi

Formulani soddalashtirganimizdan keyin u quyidagicha bo‘ladi:

$$B_i(P_i) = a_{0i} + a_{1i}P_i + a_{2i}P_i^2,$$

Bunda i – stansiya energoblogining raqami.

Sarf tavsifdagi berilgan berilgan parametrlarni shu formulaga qo‘yib chiqamiz. Ko‘rilayotgan elektrostansiyada uchta agregat qo‘yilganligi uchun, har bir energoblok uchun sarf tavsiflarini topamiz:

$$B^{(1)}(P^{(1)})=\frac{(P-150)(P-160)}{(105-150)(105-160)}\cdot 43+\frac{(P-105)(P-160)}{(150-105)(150-160)}\cdot 62+\frac{(P-105)(P-150)}{(160-105)(160-150)}\cdot 67=$$
$$=0.001414P^2+0.06162P+20.9394$$
$$B^{(2)}(P^{(2)})=\frac{(P-110)(P-150)}{(90-110)(90-150)}\cdot 35+\frac{(P-90)(P-150)}{(110-90)(110-150)}\cdot 43+\frac{(P-90)(P-110)}{(150-90)(150-110)}\cdot 64=$$
$$=0.002083P^2+0.01667P+19.625$$
$$B^{(3)}(P^{(3)})=\frac{(P-140)(P-200)}{(110-140)(110-200)}\cdot 45+\frac{(P-110)(P-200)}{(140-110)(140-200)}\cdot 61+\frac{(P-110)(P-140)}{(200-110)(200-140)}\cdot 95=$$
$$=0.00037P^2+0.441P+7.963$$

Hisoblash natijasida IES ning uchta energoblokining sarf tavsiflarining quyidagi polinomial bog‘liqliklari olindi:

$$B_1(P_1) = 20.9394 + 0.06162P_1 + 0.001414P_1^2$$
$$B_2(P_2) = 19.625 - 0.01667P_2 + 0.002083P_2^2$$
$$B_3(P_3) = 7.963 + 0.441P_3 + 0.00037P_3^2$$

6-amaliy mashg‘ulot

Elektr stansiyalarning energetik tavsiflarini qurilishi

IESning uchta blokining sarf tavsiflarini polinom ko‘rinishida yozamiz:

$$B_i(P_i) = a_{0i} + a_{1i}P_i + a_{2i}P_i^2$$
$$B_1(P_1) = 3,56 + 0,273P_1 + 0,00083P_1^2$$
$$B_2(P_2) = 6,55 + 0,311P_2 + 0,00024P_2^2$$
$$B_3(P_3) = 6,31 + 0,297P_3 + 0,00023P_3^2$$

1. Agregatlarga tug‘ri keluvchi quvvatlarda sarf tavsiflarini differensiallash yordamida IES ning har bir bloki uchun yoqilg‘i sarfining nisbiy o‘sishi (YOSNO‘) tavsiflarini aniqlaymiz, ular *i*-energoblokning yoqilg‘i sarfining o‘zgarishini ko‘rsatadi, agar yuklama dP_i miqdorga o‘zgarsa quyidagicha ko‘rinishga keladi:

$$b_i(P_i)=\frac{\partial B_i(P_i)}{\partial P_i}=a_{1i}+2a_{2i}P_i$$

$$\begin{cases} b_1(P_1) = 0,273 + 2 \cdot 0,00083 P_1 = 0,273 + 0,00166 P_1 \\ b_2(P_2) = 0,311 + 2 \cdot 0,00024 P_2 = 0,311 + 0,00048 P_2 \\ b_3(P_3) = 0,297 + 2 \cdot 0,00023 P_3 = 0,297 + 0,00046 P_3 \end{cases}$$

2. Sarf tavsiflarini hisoblanishi jadval ko‘rinishida, energoblokning boshqarish diapazoni 5(10) MVt li qadam bilan hisoblaymiz.

Yoqilg‘i sarfining nisbiy o‘sishi tavsiflarini qurish uchun, ularning boshqarish diapazoni chegaralarida bloklarning nisbiy o‘sishi miqdori topiladi. Energobloklarning sarf tavsiflari va yoqilg‘i sarfining nisbiy o‘sishi tavsiflarini hisoblangan natijalarini 2.1-jadval ko‘rinishiga keltiramiz.

IES energobloklarining sarf tavsiflari.

2.1-jadval

P_1 , MVt	B_1, t.sh.yo/s	P_2 , MVt	B_2 , t.sh.yo/s	P_3 , MVt	B_3 , t.sh.yo/s
80	30,712	100	40,05	105	40,03075
90	34,853	110	43,664	110	41,763
100	39,16	120	47,326	120	45,262
110	43,633	130	51,036	130	48,807
120	48,272	140	54,794	140	52,398
130	53,077	150	58,6	150	56,035
140	58,048	160	62,454	160	59,718
150	63,185	170	66,356	170	63,447
		180	70,306	180	67,222
		190	74,304	190	71,043
		200	78,35	200	74,91
		210	82,444	210	78,823
		220	86,586	220	82,782
		230	90,776	230	86,787
		240	95,014	240	90,838
		250	99,3	250	94,935
		260	103,634	260	99,078
		270	108,016	270	103,267
		280	112,446	280	107,502
		290	116,924	290	111,783
		300	121,45	300	116,11

